



«TASDIQLAYMAN»

«GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI» AJ Boshqaruvi
raisi

O.X. Nazarov

5-yanvar 2026-yil

**Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini
majburiy sug'urta qilish bo'yicha E-polisni onlayn rasmiylashtirishga doir
OMMAVIY OFERTA**

1. «GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI» AJning ushbu Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha E-polisni (elektron polisni) onlayn rasmiylashtirishga doir ommaviy ofertasi (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) elektron polisni onlayn rasmiylashtirish tartibini, shartnoma tuzish, unga o'zgartirishlar kiritish va uni bekor qilish tartibini, shuningdek, «GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI» AJ va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish (bundan buyon matnda TVEFJMS deb yuritiladi) shartlarini belgilaydi.

2. Sug'urta xizmatlari «GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI» AJ (STIR: 207135501, bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) tomonidan quyidagilar asosida ko'rsatiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan 2025-yil 2-iyunda berilgan SF00028 seriyali litsenziya;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-son qarori (4-ilova) bilan tasdiqlangan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari (bundan buyon matnda Sug'urta qoidalari deb yuritiladi).

3. Ushbu Oferta Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qoidalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi, «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi, «Elektron tijorat to'g'risida»gi, «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi va «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda «Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 780-son qarori asosida ishlab chiqilgan.

4. Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytidan va (yoki) mobil ilovasidan foydalanishda Sug'urta qildiruvchi avvaldan ushbu Oferta shartlari bilan to'liq tanishib chiqishi shart. Ushbu Oferta shartlari bilan Sug'urtalovchining veb-saytida <https://gross.uz/uz/products/osago> havolasi orqali tanishish mumkin.

5. Sug'urta qildiruvchi Oferta shartlariga yoki uning ayrim qoidalariga rozi bo'lmagan taqdirda, u rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishni to'xtatishi shart. Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytidan va (yoki) mobil ilovasidan foydalanishni davom ettirish Sug'urta qildiruvchining ushbu Oferta shartlariga to'liq va so'zsiz roziligi anglatadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, Sug'urta qildiruvchi tomonidan Oferta shartlarini qabul qilinishi uning ushbu Oferta shartlariga to'liq va so'zsiz roziligi (yoki aksepti) hisoblanadi va bu bilan quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlariga, shu jumladan unda bayon etilgan sug'urta shartlariga;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlarni sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida 5 yil muddatga avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan usulda qayta ishlashga, shu jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilishga (yo'q qilinganligi haqida xabardor qilmasdan), shuningdek, sug'urta shartnomasini ijro etish va ichki hujjat aylanishini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga berishga rozilik ifodalanadi.



7. Sug'urta qildiruvchi o'z huquqiy layoqati va muomala layoqatini tasdiqlaydi, shuningdek, Sug'urtalovchining veb-sayti va axborot tizimlari orqali TVEFJMS shartnomasini tuzish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar uchun javobgarlikni anglaydi.

8. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining veb-sayti va axborot tizimlarida onlayn rejimda TVEFJMS shartnomasini tuzish uchun mobil telefon raqamiga ega bo'lishi kerak.

I. UMUMIY QOIDALAR VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

9. Ushbu Ofertada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Sug'urta qildiruvchi – 18 yoshga to'lgan, muomala layoqati va huquqiy layoqatga ega bo'lgan, transport vositasiga egalik qiluvchi va Sug'urtalovchi bilan TVEFJMS shartnomasini tuzgan shaxs. Chet davlatlarda ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositalarining egalari ushbu Ofertaning tomoni (sug'urta qildiruvchi) bo'la olmaydi.

E-polis – Sug'urta qoidalariga muvofiq TVEFJMS shartnomasi tuzilganligi faktini tasdiqlovchi, Sug'urtalovchi tomonidan veb-sayt va axborot tizimlaridan foydalangan holda rasmiylashtiriladigan elektron polis (hujjat).

Transport vositasining egasi – transport vositasining mulkdori, shuningdek, transport vositasiga xo'jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi asosida yoxud boshqa qonuniy (mulk ijarasi shartnomasi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma, tegishli organning ushbu shaxsga transport vositasini topshirish to'g'risidagi farmoyishi va h.k.) asoslarda egalik qiluvchi shaxs. O'z xizmat yoki mehnat vazifalarini bajarishi tufayli, shu jumladan, transport vositasining mulkdori yoki boshqa egasi bilan tuzilgan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida transport vositasini boshqarayotgan shaxs transport vositasining egasi hisoblanmaydi.

Transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari – transport vositasi mulkdorining yaqin qarindoshlari (otanasasi, eri (xotini), farzandlari, aka-ukalari, opa-singillari) bo'lib, ularga transport vositasidan foydalanish va boshqarish uchun notarial tasdiqlangan ishonchnoma rasmiylashtirish talab etilmaydi.

Haydovchi – transport vositasini boshqarayotgan shaxs. Transport vositasini boshqarishni o'rgatish vaqtida o'rgatuvchi shaxs haydovchi hisoblanadi.

Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi – sug'urta (TVEFJMS) shartnomasi bo'lib, unga ko'ra Sug'urtalovchi shartnomada kelishilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta hodisasi yuz berganda jabrlanuvchilarga ushbu hodisa oqibatida ularning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararni sug'urta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchi bilan u tomonidan ariza yuborish, sug'urta mukofotini to'lash va unga ushbu Oferta hamda Sug'urta qoidalar asosida E-polis taqdim etish yo'li bilan tuziladi.

Transport vositasidan foydalanish – transport vositasining yo'llar doirasida (yo'l harakatida), shuningdek, ularga tutash bo'lgan va transport vositalari harakati uchun mo'ljallangan hududlarda harakatlanishidan iborat bo'lgan ekspluatatsiyasi. Transport vositasiga o'rnatilgan va uning harakatdagi ishtiroki bilan bevosita bog'liq bo'lmagan uskunalarning ekspluatatsiya qilinishi transport vositasidan foydalanish hisoblanmaydi.


Jabrlanuvchi – boshqa shaxs tomonidan transport vositasidan foydalanish vaqtida hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazilgan shaxs.

Sug'urta mukofoti – majburiy sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi.

Sug'urta summasi – sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquqiy vorisiga) yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladigan chegaraviy summa.

Sug'urta tovon – majburiy sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash hisobiga sug'urta summasi doirasida to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi.

Sug'urta hodisasi – sug'urta qildiruvchining yoki sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarligi sug'urtalangan boshqa shaxsning transport vositasidan foydalanishda jabrlanuvchilarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi bo'lib, bu sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqaradi.



Transport vositasi – yo'llarda odamlarni, bagajni, yuklarni yoki unga o'rnatilgan uskunalarni tashish uchun mo'ljallangan qurilma.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma – yo'l-transport hodisasi sodir etilgan joyda unda ishtirok etgan haydovchilar tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisasi haqida sug'urtalovchiga xabar berish uchun ixtiyoriy ravishda to'ldiriladigan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganligi faktini tasdiqlovchi hujjat.

Yagona axborot tizimi – TVEFJMS bo'yicha onlayn rejimda ishlaydigan, Sug'urta to'lovlarini kafolatlash jamg'armasi, Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarning axborot tizimlari hamda markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan yagona elektron va axborot tizimi.

Rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish – Sug'urta qildiruvchining ulardan foydalanishga qaratilgan har qanday harakati. Rasmiy veb-sayt va (yoki) mobil ilovadan foydalanish faqat Butunjahon Internet axborot tarmog'iga ulanish mavjud bo'lgandagina mumkin. Shu munosabat bilan, Sug'urta qildiruvchi Internet tarmog'iga ulanish choralari mustaqil ravishda ko'radi.

Ofertaning amal qilish hududi – O'zbekiston Respublikasining ma'muriy hududi.

II. E-POLISNI RASMIYLASHTIRISH

10. E-polisni rasmiylashtirish Sug'urtalovchining www.gross.uz veb-saytidagi «Majburiy avtosug'urta» («TVEFJMS» polisini onlayn rasmiylashtirish) bo'limida, shuningdek, Sug'urtalovchi yoki uning sheriklarining mobil ilovalari, telegram-boti va (yoki) elektron to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi.

11. E-polisni rasmiylashtirish uchun Sug'urta qildiruvchi ariza to'ldiradi va unda shaxsga doir ma'lumotlarni, shuningdek, har bir transport vositasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi:

✓ Sug'urta qildiruvchining va (yoki) transport vositasini boshqarishga ruxsat berilgan jismoniy shaxslarning (faqat muayyan shaxslarga boshqarish huquqini berish sharti bilan E-polis rasmiylashtirilayotgan bo'lsa) shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), shaxsini tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami; soliqli to'lovchining identifikatsiya raqami (yuridik shaxslar uchun); transport vositasi egasining shaxsiy identifikatsiya raqami, shaxsini tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami (agar transport vositasining mulkdori boshqa jismoniy shaxs bo'lsa); elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa); mobil telefon raqami;

✓ E-polis rasmiylashtirilayotgan transport vositasining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami, transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning seriyasi va raqami; agar Sug'urta qildiruvchi qonunchilikka muvofiq sug'urta mukofoti bo'yicha chegirma olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifasiga kirsam – Sug'urta qildiruvchining ushbu toifaga mansubligini tasdiqlovchi hujjatlarning (guvohnoma, ma'lumotnoma) rekvizitlari, majburiy sug'urta bo'yicha chegirma mavjudligini ko'rsatgan holda; transport vositasidan foydalanishga va boshqarishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshlarning (ota-ona, er (xotin), o'g'il, qiz, aka-ukalar, opa-singillar) qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlar rekvizitlari; transport vositasi ro'yxatdan o'tgan joy;


✓ sug'urta muddati (1 yil; transport vositasidan mavsumiy foydalanilganda – 6 va undan ortiq oy; ro'yxatdan o'tish joyiga borish uchun – 10 va undan ortiq kun); E-polis rasmiylashtirilganligi to'g'risida xabarnoma yuborish usuli (telefon raqami, elektron pochta manzili yoki Sug'urtalovchining veb-saytidagi yoxud mobil ilovadagi shaxsiy kabinet orqali).

Bunda tegishli ma'lumotlar yagona axborot tizimida mavjud bo'lgan taqdirda, ular avtomatik ravishda to'ldiriladi.

12. Elektron arizani to'ldirish vaqtida Yagona axborot tizimi qisman yoki to'liq ishlamay qolganda, ya'ni davlat axborot ma'lumotlar bazalari ishlamayotgan va (yoki) ular bilan aloqa bo'lmaganda, Sug'urta qildiruvchi yetishmayotgan ma'lumotlarni qo'lda kiritadi.

DIQQAT!

SUG'URTA QILDIRUVCHI ELEKTRON POLISNI RASMIYLASHTIRISH UCHUN SUG'URTALOVCHIGA TAQDIM ETILAYOTGAN MA'LUMOTLAR VA HUJJATLARNING HAQQONIIY EKANLIGIGA JAVOBGARDIR.



**GROSS**

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy

sug'urta qilish bo'yicha E-polisni

onlayn rasmiylashtirishga doir

OMMAVIY OFERTA

FK-57/K10

4-bet 7 betdan

05.01.2026-y.

13. Elektron ariza to'liq to'ldirilgandan so'ng, Sug'urta qildiruvchiga «Ko'rib chiqishga o'tish» tugmasini bosish orqali arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish imkoniyati beriladi.

14. Sug'urta qildiruvchi tomonidan elektron arizada yuborilgan ma'lumotlar Sug'urtalovchidagi mavjud va Yagona axborot tizimidan olinadigan ma'lumotlar bilan ularning to'liqligi va to'g'riligi yuzasidan avtomatik rejimda solishtiriladi, shundan so'ng Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotini to'lash mumkinligi yoki tuzatilgan ma'lumotlarni qayta yuborish zarurligi to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

Agar Sug'urta qildiruvchi ariza topshirilgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida ma'lumotlarni qayta tekshirishni va (yoki) tuzatishni amalga oshirmasa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga E-polisni rasmiylashtirish imkoniyati yo'qligi to'g'risida quyidagi usullardan biri: rasmiy veb-sayt, axborot tizimlari, Sug'urtalovchining mobil ilovasi yoki SMS-xabarnoma orqali xabar beradi.

15. Sherik – to'lov tizimi sahifasiga yo'naltirilgandan so'ng, Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lov uchun ajratilgan vaqt ichida to'lashi shart. Agar sug'urta mukofoti E-polisda nazarda tutilganidan kam miqdorda to'langan bo'lsa, E-polis uning qiymati to'liq to'langunga qadar rasmiylashtirilmaydi.

16. Sug'urta mukofoti to'langanligi fakti Sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu Ofertaning aksept qilinganligini (qabul qilinganligini) anglatadi va uning TVEFJMS shartnomasini tuzishga bo'lgan xohish-irodasini tasdiqlaydi.

17. Sug'urta mukofoti to'liq miqdorda to'langandan so'ng:

a) Sug'urta qildiruvchiga E-polis rasmiylashtirilgani va sotib olinganini tasdiqlovchi SMS-xabarnoma yuboriladi, unda quyidagilar mavjud bo'ladi:

- sug'urta tashkilotining nomi;
- sug'urta mukofotining miqdori;
- E-polisning amal qilish muddati;
- E-polisning noyob raqami;
- Yagona axborot tizimidagi E-polisga havola.

b) Sug'urta qildiruvchi E-polisni yuklab olish uchun Sug'urtalovchining saytiga qayta yo'naltiriladi (agar E-polis qiymati ariza to'ldirilgandan so'ng darhol to'langan bo'lsa) yoki unga SMS-xabarnoma orqali yuborilgan Yagona axborot tizimiga havola orqali E-polisni mustaqil ravishda yuklab olishi mumkin (agar E-polis qiymati Sug'urtalovchi saytidan chiqqandan so'ng to'langan bo'lsa).

18. E-polis Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanidan keyin, lekin E-polisda ko'rsatilgan sug'urta davri boshlanishidan oldin bo'lmagan paytdan kuchga kiradi. Agar E-polisda sug'urtaning boshlanishi uchun boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta E-polis kuchga kirganidan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

19. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urtalovchidan E-polis bo'yicha tushuntirishlar berishni talab qilish;
- istalgan vaqtda rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishni to'xtatish;
- majburiy sug'urta bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi Sug'urtalovchini tanlash.

Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni bajarishi shart:

- E-polis bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni belgilangan tartibda va belgilangan muddatlarda bajarishi;
- E-polis bo'yicha sug'urta mukofotini belgilangan tartibda va belgilangan shartlarda to'lashi;
- TVEFJMS shartnomasi doirasida sug'urta xizmatlarini olish uchun Sug'urta qoidalarining talablari va shartlariga rioya qilishi shart.

20. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- jabrlanuvchining (uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislarining) arizasini ko'rib chiqishda tegishli ekspertlarni jalb qilish;
- Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirish, sug'urta shartnomasi talablari va shartlari bajarilishini nazorat qilish;

- sug'urta hodisalari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda, to'langan sug'urta tovonini regress tartibida qaytarishni talab qilish.

Sug'urtalovchi quyidagilarni bajarishi shart:

- Sug'urta qildiruvchi uchun o'z veb-sayti va (yoki) mobil ilovasidan tunu kun to'sqinliksiz foydalanish imkoniyatini yaratishi va ta'minlashi;
- Sug'urta qildiruvchi va (yoki) jabrlanuvchining murojaati yoki arizasini ko'rib chiqishi, shuningdek, belgilangan tartibda sug'urta to'lovi va (yoki) sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirishi;
- sug'urta faoliyatini amalga oshirish jarayonida olingan Sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning sir tutilishini ta'minlashi shart.

Sug'urtalovchi quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- Sug'urta qildiruvchining rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq ko'rgan zararlari;
- Sug'urta qildiruvchi tomonidan rasmiy veb-sayt va mobil ilovadagi ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga berilishi oqibatlari;
- Sug'urtalovchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish imkoniyati bo'lmaganligi sababli xizmatlarning ko'rsatilmasligi.

21. Jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urtalovchiga sug'urta to'lovini amalga oshirish va (yoki) sug'urta tovonini to'lash talabi bilan murojaat qilish;
- Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish va (yoki) sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sud tartibida shikoyat qilish;
- qonunchilikda belgilangan shartlarda sug'urta to'lovini va (yoki) sug'urta tovonini olish.

22. Ushbu Oferta tomonlari (Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi, Jabrlanuvchi va (yoki) uning qonuniy vakillari (merosxo'rlari)) Sug'urta qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari va zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

IV. E-POLISNI O'ZGARTIRISH VA MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH

23. E-polisning amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'zgarganligi haqida Sug'urtalovchini darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.

E-polisni rasmiylashtirishda taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risidagi axborot olinganda, Sug'urtalovchi E-polisga tegishli o'zgartirishlar kiritadi hamda yangilangan E-polisni ushbu Ofertada nazarda tutilgan usulda Sug'urta qildiruvchiga taqdim etadi yoki yuboradi.


24. E-polisning amal qilish muddati quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatiladi:

- belgilangan tartibda transport vositasidan foydalanish taqiqlanganda;
- E-polisda ko'rsatilgan transport vositasi keyingi foydalanish uchun yaroqsiz deb topilganda;
- transport vositasining mulkdori o'zgarganda.

25. E-polisning amal qilishi muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, sug'urta mukofotining bir qismi to'langan sug'urta tovonini summasiga (agar to'lov amalga oshirilgan bo'lsa) va E-polisning amal qilish muddati tugamagan kunlari soniga mutanosib ravishda qaytarilishi lozim.

26. E-polisning amal qilishi muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, sug'urta mukofotining bir qismi to'langan tovon summasiga va E-polisning kunlar hisobidagi qolgan amal qilish muddatiga mutanosib ravishda qaytariladi. Bunda E-polisning amal qilishi ushbu Ofertaning 25-bandida ko'rsatilganidan boshqa asoslarga ko'ra muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta mukofotining qaytariladigan qismidan ushbu E-polis bo'yicha o'zining isbotlanuvchi xarajatlari summasini sug'urta mukofotining 20 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda chegirib qolishi mumkin.

Ushbu badda nazarda tutilgan hollarda sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta qildiruvchiga (uning qonuniy vakillari, merosxo'rlari, huquqiy vorislariga) qaytarish sug'urta qildiruvchining (uning qonuniy vakillari, merosxo'rlarining, huquqiy vorislarining) tegishli murojaat qilgan kundan e'tiboran 14 kalendar kuni ichida amalga oshiriladi.



27. Bunda sug'urta mukofotining qaytarilishi lozim bo'lgan qismi Sug'urta qildiruvchining ixtiyoriga ko'ra va uning arizasi asosida yangi rasmiylashtirilayotgan E-polis bo'yicha sug'urta mukofoti hisobiga o'tkazilishi mumkin.

V. SUG'URTA HODISASI YUZ BERGANDA SHAXSLARNING AMALGA OSHIRADIGAN HARAKATLARI

28. Jabrlanuvchiga (jabrlanuvchilarga) zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yo'l-transport hodisasi (YTH) ishtirokchisi hisoblangan Sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi E-polisga muvofiq sug'urtalangan boshqa shaxs), jabrlanuvchining (jabrlanuvchilarning) talabiga ko'ra unga (ularga) E-polis to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart.

29. Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchi yoki fuqarolik javobgarligi E-polisga muvofiq sug'urtalangan boshqa shaxs quyidagilarni bajarishi shart:

- yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan kundan e'tiboran uch kalendar kuni ichida jabrlanuvchiga sug'urta polisi nusxasini topshirishi;
- davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) xodimlari kelishini kutishi, imkon qadar voqea guvohlarini qayd etish, DYHXXni xabardor qilishi, yetkazilgan zarar to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishi va zarar miqdorini kamaytirish choralarini ko'rishi;
- yo'l-transport hodisasidan keyin darhol, lekin 72 soatdan kechiktirmasdan, sug'urta polisi nusxasini ilova qilgan holda sodir bo'lgan hodisa to'g'risidagi xabarnoma bilan Sug'urtalovchiga murojaat qilishi;
- sug'urta hodisasi munosabati bilan o'ziga nisbatan qo'yilayotgan barcha talablar haqida Sug'urtalovchiga xabar berishi;
- Sug'urta qoidalaridan kelib chiqadigan talab va shartlarga rioya qilishi shart.

VI. SUG'URTA TO'LOVI VA (YOKI) SUG'URTA TO'VONINI OLIISH TARTIBI

30. Jabrlanuvchi yoki Sug'urta qildiruvchi (sug'urta hodisasini to'g'ridan-to'g'ri hal etishda) sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi xabarnomani, yetkazilgan zarar miqdori haqidagi xulosani, shuningdek, xabarnomani qabul qilish va ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning elektron yoki skanerlangan nusxalarini Sug'urtalovchining veb-sayti yoxud mobil ilovasi orqali yuborishlari mumkin.

31. Xabarnoma va hujjatlar olingan kundan boshlab uch ish kuni ichida Sug'urtalovchi aloqa vositalari orqali o'z vakilining Sug'urta qildiruvchi bilan bog'lanishini ta'minlaydi yoki u bilan bog'lanish imkoni bo'lmagan taqdirda, yetishmayotgan va (yoki) noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarning to'liq ro'yxatini ko'rsatgan holda yozma xabarnoma yuboradi.

32. Sug'urta to'lovini yoki sug'urta tovonini olish uchun Sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchi (uning qonuniy vakillari yoki merosxo'rlari) Sug'urtalovchining hududiy filiallaridan biriga ariza bilan murojaat qiladi hamda sug'urta hodisasi yuz berganligini, zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.


VII. SUG'URTA SUMMASI, SUG'URTA MUKOFOTI, SUG'URTA TO'LOVI VA (YOKI) SUG'URTA TO'VONINING MIQDORI

33. TVEFJMS shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi 80 000 000,0 (sakson million) so'mni tashkil etadi. Shundan quyidagilarga yetkazilgan zarar uchun sug'urta summasi:

- ✓ jabrlanuvchining mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun — sug'urta summasining 35 foizini yoki 28 000 000,0 (yigirma sakkiz million) so'mni tashkil etadi;
- ✓ jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun — sug'urta summasining 65 foizini yoki 52 000 000,0 (ellik ikki million) so'mni tashkil etadi.

34. TVEFJMS bo'yicha sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan 1 (bir) yil muddatga quyidagi miqdorda to'lanadi:

TV turi	Hudud			
	Toshkent shahri va Toshkent viloyati**		Boshqa viloyatlar**	
	Cheklangan*** (so'mda)	Cheklanmagan**** (so'mda)	Cheklangan*** (so'mda)	Cheklanmagan**** (so'mda)
Yangil avtomobil	192 000,0	384 000,0	160 000,0	320 000,0



**GROSS**

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy
sug'urta qilish bo'yicha E-polisni
onlayn rasmiylashtirishga doir
OMMAVIY OFERTA

FK-57/K10

7-bet 7 betdan
05.01.2026-y.

Yuk avtomobili	336 000,0	672 000,0	280 000,0	560 000,0
Avtobus va ikroavtobuslar	384 000,0	768 000,0	320 000,0	640 000,0
Tramvaylar, motosikllar va motorollerlar, traktorlar, o'zi yurar yo'l-qurilish mashinalari va boshqa mashinalar	72 000,0	144 000,0	60 000,0	120 000,0

* Elektron arizada sug'urta muddati sifatida «6 oy» yoki «ro'yxatdan o'tish joyigacha» grafasi tanlanganda, sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti elektron arizani to'ldirish jarayonida jadvalda ko'rsatilgan summadan kamroq miqdorda e'lon qilinadi.

** TV ro'yxatdan o'tkazilgan hudud.

*** TVdan haydovchilar soni cheklangan holda foydalanish sharti bilan rasmiylashtirilganda.

**** TVdan haydovchilar soni cheklanmagan holda foydalanish sharti bilan rasmiylashtirilganda.

35. Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotining miqdori E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga kiritilgan ma'lumotlarga muvofiq, shuningdek, chegirma olish huquqini inobatga olgan holda belgilanadi. Bunda chegirmalar Sug'urta qoidalarining 33-bandida nazarda tutilgan Sug'urta qildiruvchilarning ayrim toifalariga taqdim etiladi.

VIII. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SHARTLARI

36. Sug'urta qildiruvchi tomonidan E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga ma'lumotlarning kiritilishi, uning o'z shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga (shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozish, tizimlashtirish, saqlash, foydalanish va yo'q qilishga) bo'lgan roziligi hisoblanadi.

37. Ushbu Oferta doirasida va Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, ushbu Ofertaning 6-bandi shartlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

38. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi, jabrlanuvchilar va bo'shqa shaxslarning ma'lumotlari saqlanishini hamda oshkor qilinmasligini O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 62-moddasi talablariga muvofiq (sug'urta siri) ta'minlash majburiyatini oladi.

39. Ushbu Oferta talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

40. Tomonlar o'rtasida ushbu Ofertada nazarda tutilgan yoki u bilan bog'liq masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni sudgacha hal qilish choralarini ko'rish majburiyatini zimmasiga oladi. Nizolarni sudgacha hal qilish tartibida hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudga ko'rib chiqilishi lozim.

41. Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan masalalar bo'yicha yuzaga kelgan savollar yoki nizolar Sug'urta qoidalariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

42. Ushbu Oferta o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan bo'lib, Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida va (yoki) mobil ilovasida e'lon qilinishi lozim.

